

## QADIMGI XORAZM DAVLATINING IQTISODIY HAYOTI VA UNING REKANSTRUKSIYASI MASALALARI

**Niyozmetova Marhabo Rustam qizi**

Urganch davlat universiteti

Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594880>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qadimgi Xorazm davlatining iqtisodiy hayoti va uni rekonstruksiya qilish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda arxeologik, yozma, numizmatik hamda tarixiy-topografik manbalar asosida vohaning xo'jalik tizimi yoritilgan. Sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo aloqalari va shahar markazlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, iqtisodiy hayot, irrigatsiya, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, rekonstruksiya.

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы экономической жизни древнего Хорезма и проблемы её реконструкции. Исследование основано на археологических, письменных, нумизматических и историко-топографических источниках.

Рассматриваются особенности ирригационного земледелия, ремесленного производства, торговых связей и роли городских центров в экономическом развитии региона.

**Ключевые слова:** Хорезм, экономическая жизнь, ирригация, земледелие, ремесло, торговля, реконструкция.

**Abstract.** This article examines the economic life of ancient Khorezm and the issues of its reconstruction. The study is based on archaeological, written, numismatic, and historical-topographical sources. Particular attention is paid to irrigated agriculture, handicraft production, trade relations, and the role of urban centers in economic development.

**Keywords:** Khorezm, economic life, irrigation, agriculture, handicrafts, trade, reconstruction.

### KIRISH

Qadimgi Xorazm Markaziy Osiyoning eng qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy hayoti mintaqa taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan ushbu voha tabiiy-geografik sharoitlari, unumdor yer maydonlari va rivojlangan sug'orish tizimlari tufayli qadimdan yirik iqtisodiy markaz sifatida shakllangan.

Xorazm aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo faoliyati orqali o'ziga xos iqtisodiy tizim yaratgan. Ayniqsa, sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik tizimi vohaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Akshaxonqal'a va boshqa yodgorliklar qadimgi Xorazm iqtisodiyotining rivojlanganligini tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda tarixshunoslikda qadimgi Xorazm iqtisodiy hayotini rekonstruksiya qilish masalasiga qiziqish ortib bormoqda.

Bunga sabab iqtisodiy hayotga oid ma'lumotlarning turli manbalarda tarqoq holda saqlanganidir. Yozma manbalar, arxeologik topilmalar, numizmatik materiallar va tarixiy-topografik ma'lumotlarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali qadimgi xo'jalik tizimini tiklash imkoniyati mavjud.

#### **METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR SHARHI**

Qadimgi Xorazm davlatining iqtisodiy hayoti va uning rekonstruksiya masalalarini tadqiq etishda tarixiylik, xolislik, tizimlilik va fanlararo yondashuv tamoyillariga asoslanildi.

Mazkur mavzuning o'ziga xos jihati shundaki, iqtisodiy hayotga oid ma'lumotlar yagona manbada emas, balki arxeologik topilmalar, yozma manbalar, numizmatik materiallar va tarixiy-topografik ma'lumotlarda tarqoq holda saqlangan [1]. Shu sababli tadqiqotda kompleks rekonstruksiya usuli asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida sug'orma dehqonchilik tizimi, hunarmandchilik markazlari, savdo yo'llari va iqtisodiy markazlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy usuldan ham foydalanildi. Ushbu usul orqali qadimgi Xorazm iqtisodiy tizimi Markaziy Osiyoning boshqa vohalari bilan qiyoslandi hamda uning o'ziga xos va umumiy jihatlari aniqlandi. Manbashunoslik tahlili yordamida har bir manbaning ilmiy qiymati, ishonchlilik darajasi va axborot imkoniyatlari baholandi. Arxeologik topilmalar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari haqida ma'lumot bersa, numizmatik materiallar pul muomalasi va savdo aloqalarini yoritishga xizmat qildi. Tarixiy-topografik tahlil esa qadimgi kanal tarmoqlari, aholi manzilgohlari va xo'jalik markazlarining hududiy joylashuvini aniqlash imkonini berdi.

Qadimgi Xorazm iqtisodiy hayoti masalalari turli davrlarda ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda eng muhim tadqiqotlardan biri S.P. Tolstovning "Древний Хорезм" asaridir. Muallif Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi materiallari asosida qadimgi Xorazmning davlatchilik tarixi, irrigatsiya tizimi, aholi manzilgohlari va iqtisodiy taraqqiyotini yoritgan [2]. Tolstovning "По древним дельтам Окса и Яксарта" nomli asari esa qadimgi Amudaryo deltalaridagi xo'jalik tizimi va sug'orish inshootlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi[3].

Xorazm irrigatsiya tarixini tadqiq etishda Ya.G'. G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgacha)" asari alohida ahamiyatga ega. Muallif sug'orish tizimlarining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilib, ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini asoslab bergan [4]. B.V. Andrianovning "Древние оросительные системы Приаралья" (1969) asarida esa qadimgi Aralbo'yi hududlaridagi irrigatsiya tarmoqlari va ularning aholi joylashuviga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan [5].

So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham qadimgi Xorazm iqtisodiyotiga oid muhim ishlar amalga oshirilgan. Michele Minardining "Ancient Chorasmia: A Polity between the Semi-Nomadic and Sedentary Cultural Areas of Central Asia" (2015) asari Xorazmning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini yangi metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilgan. Muallif qadimgi Xorazmning qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarini yoritib, uning Markaziy Osiyodagi o'rnini qayta baholaydi [6].

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Qadimgi Xorazm davlatining iqtisodiy hayoti arxeologik, yozma, numizmatik va tarixiy-topografik manbalar asosida tahlil qilinib, uning asosiy xo'jalik tarmoqlari hamda iqtisodiy tizimini rekonstruksiya qilishga oid muhim natijalar aniqlandi. Olingan ma'lumotlar Xorazmning Markaziy Osiyodagi eng rivojlangan qadimgi iqtisodiy markazlardan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimida shakllangan sug'orma dehqonchilik tizimi voha iqtisodiyotining tayanch omili bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari sug'orish tarmoqlarining kengayishi bilan aholi sonining ortishi, yangi manzilgohlarning vujudga kelishi va iqtisodiy markazlarning shakllanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Qadimgi kanal izlari, irrigatsiya inshootlari va yer o'zlashtirish hududlari vohada dehqonchilikning yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu esa Xorazm iqtisodiyotining tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslanganligini anglatadi.

Qadimgi Xorazmda iqtisodiy hayot faqat dehqonchilik bilan cheklanmagan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan kulolchilik buyumlari, metall mahsulotlari, mehnat qurollari va zargarlik namunalari hunarmandchilikning ham yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayozaqal'a va Akshaxonqal'a kabi yodgorliklarda aniqlangan ustaxona qoldiqlari ishlab chiqarish faoliyatining markazlashgan shakllarini ko'rsatadi.

Bu esa hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qondirish, balki almashinuv va savdo jarayonlarida ham muhim o'rin tutganligini anglatadi. Ayniqsa, sopol buyumlar ishlab chiqarishining rivojlanganligi aholi turmush darajasi va xo'jalik madaniyatining yuksak bo'lganidan dalolat beradi[7].

Numizmatik manbalar tahlili qadimgi Xorazmda pul muomalasi va savdo munosabatlari shakllanganligini ko'rsatdi. Xorazm hududidan topilgan tangalar ichki almashinuvning rivojlanganligi bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy aloqalarning ham mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayrim tangalarda mahalliy hukmdorlar tasvirining uchrashi iqtisodiy boshqaruv va siyosiy hokimiyatning o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritganidan dalolat beradi. Savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida Xorazm qo'shni hududlar, jumladan Baqtriya, So'g'diyona va Dashti Qipchoq bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatgan. Buyuk Ipak yo'lining ayrim tarmoqlari orqali olib borilgan savdo voha iqtisodiyotining yuksalishiga xizmat qilgan. Shu sababli Xorazm iqtisodiy taraqqiyotini faqat mahalliy omillar bilan emas, balki xalqaro savdo tizimi bilan bog'liq holda baholash maqsadga muvofiqdir.

Qadimgi Xorazmda qal'alar faqat harbiy istehkom vazifasini bajarmagan, balki ma'muriy va iqtisodiy markaz sifatida ham faoliyat yuritgan. Arxeologik materiallar omborxonalar, xo'jalik binolari va ishlab chiqarish maydonlarining mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat iqtisodiy resurslarni yig'ish, saqlash va qayta taqsimlash tizimi mavjud bo'lganligini anglatadi. Ayniqsa, Tuproqqal'a kabi markazlarda aniqlangan hujjatlar va xo'jalik inshootlari markazlashgan boshqaruv tizimining shakllanganidan darak beradi. Demak, iqtisodiy taraqqiyot va davlat boshqaruvi o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud bo'lgan [8].

Qadimgi Xorazm iqtisodiy hayotini rekonstruksiya qilish masalasining murakkabligi alohida namoyon bo'ldi.

Sababi, iqtisodiy faoliyatga oid ma'lumotlar turli manbalarda parchalanib saqlangan.

Yozma manbalar son jihatdan kam bo'lsa-da, ular iqtisodiy boshqaruv va hujjatlashtirish tizimi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Arxeologik topilmalar esa ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini tiklash imkonini yaratadi. Numizmatik materiallar savdo va pul muomalasi haqida ma'lumot bersa, tarixiy-topografik tadqiqotlar irrigatsiya tarmoqlari va aholi joylashuvining iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqligini aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli iqtisodiy hayotni rekonstruksiya qilishda manbalarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda o'rganish zarur.

S.P. Tolstov, Y.G'. G'ulomov va B.V. Andrianov tomonidan ilgari surilgan irrigatsiya va dehqonchilikning iqtisodiy taraqqiyotdagi hal qiluvchi o'rni haqidagi fikrlar bugungi arxeologik topilmalar bilan ham tasdiqlanmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan Michele Minardi va Alison Betts ishlari esa qadimgi Xorazmni yakkalangan hudud emas, balki mintaqaviy iqtisodiy va madaniy aloqalar tizimining faol ishtirokchisi sifatida ko'rsatmoqda[9]. Bu esa iqtisodiy rekonstruksiya jarayonida tashqi omillarni ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qadimgi Xorazm iqtisodiy hayotining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etganini, hunarmandchilik va savdo esa ushbu tizimning rivojlanishiga xizmat qilganini ko'rsatdi. Shuningdek, iqtisodiy markazlar sifatida shakllangan qal'a va shaharlar ishlab chiqarish, boshqaruv va almashinuv jarayonlarining markazida turgan.

Eng muhimi, arxeologik, yozma, numizmatik va topografik manbalar sintezi asosida qadimgi Xorazm iqtisodiy tizimini nisbatan yaxlit holda tiklash mumkinligi aniqlandi. Bu esa Xorazmning nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tarixida muhim iqtisodiy markazlardan biri bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

#### **XULOSA**

Qadimgi Xorazm davlati Markaziy Osiyoning eng rivojlangan iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, uning xo'jalik tizimi sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo aloqalariga asoslangan holda shakllangan. Tadqiqot davomida arxeologik, yozma, numizmatik va tarixiy-topografik manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, Amudaryo suvlari asosida barpo etilgan irrigatsiya tarmoqlari voha iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlagan. Dehqonchilik mahsulotlari iqtisodiy hayotning asosiy tayanchi bo'lgan bo'lsa, hunarmandchilik va savdo munosabatlari iqtisodiy tizimning yanada takomillashishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, qal'a va shaharlar nafaqat ma'muriy-siyosiy markaz, balki ishlab chiqarish, mahsulotlarni saqlash va taqsimlash markazlari sifatida ham muhim rol o'ynagan. Numizmatik topilmalar va tashqi savdo aloqalariga oid ma'lumotlar Xorazmning mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etganligini tasdiqlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Matyakubov H. Qadimgi Xorazm tarixi va madaniyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 256 b.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: Издательство МГУ, 1948. – 352 с.

3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Издательство восточной литературы, 1962. – 327 с.
4. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1969. – 252 с.
5. Фуломов Я.Г. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1959. – 312 б.
6. Harmatta J. Prolegomena to the Sources on the History of Pre-Islamic Central Asia. – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1979. – 156 p.
7. Kurbanova D.Sh. Qadimgi Xorazmning ma'naviy madaniyati va diniy qarashlari. – Toshkent: Fan, 2018. – 184 b.
8. Minardi M. Ancient Chorasmia: A Polity between the Semi-Nomadic and Sedentary Cultural Areas of Central Asia. – Leuven: Peeters Publishers, 2015. – 308 p.
9. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi: eng qadimgi davrdan ilk o'rta asrlargacha. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 368 b.